

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/2025.27.12.PED.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON UNIVERSITETI

JAVXAROVA NILUFAR ODILJON QIZI

**JADIDLARNING MILLIY PEDAGOGIKA RIVOJIGA QO‘SHGAN
HISSASI (ASHURALI ZOHIRIY FAOLIYATI MISOLIDA)**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qo‘qon - 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

**Содержание автореферата диссертации на соискание степени доктора
философии (PhD) по педагогическим наукам.**

Javxarova Nilufar Odiljon qizi

Jadidlarning milliy pedagogika rivojiga qo‘shgan hissasi (Ashurali Zohiriy
faoliyati misolida)..... 3

Javxarova Nilufar Odiljon kizi

The Contribution of the jadids to the Development of National Pedagogy (Based
on the Activity of Ashurali Zohiriy) 25

Джавхарова Нилуфар Одильжон кизи

Вклад джадидов в развитие национальной педагогики (на примере
деятельности Ашурали Захири)..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ 52

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/2025.27.12.PED.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON UNIVERSITETI

JAVXAROVA NILUFAR ODILJON QIZI

**JADIDLARNING MILLIY PEDAGOGIKA RIVOJIGA QO‘SHGAN
HISSASI (ASHURALI ZOHIRIY FAOLIYATI MISOLIDA)**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qo‘qon - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped12552 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash Qo'qon universiteti veb-sahifasida (www.kokanduni.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirildi.

Ilmiy rahbar:

Qobilova Zeboxon Bakirovna,
filologiya fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Ismoilova Gulbahor Azamovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Hamroyev G'ofir Hasanovich,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/1025.29.12.Ind.25 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "10" avgust soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Farg'ona viloyati Qo'qon shahri Turkiston ko'chasi, 28-A uy. Tel.: (99873) 545-55-55; e-mail: www.kokanduni.uz).

Dissertatsiya bilan Qo'qon universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (41 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150700, Farg'ona viloyati Qo'qon shahri Turkiston ko'chasi, 28-A uy. Tel.: (99873) 545-55-55; e-mail: www.kokanduni.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "29" iyul da tarqatildi.
(2026-yil "27" iyul da "5" raqamli reyestr bayonnomasi)



G.M.Oripova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., dotsent

O.I.Tolipova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi p.f.b.f.d (PhD), dotsent.

M.M.Mirzakarimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi ped.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida milliy pedagogik merosni o'rganish, tarixiy-ma'rifiy tajribani zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish, yosh avlodni milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy meros asosida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Globallashuv sharoitida ta'limning mazmuni faqat zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallash bilan cheklanmay, balki xalqning tarixiy-pedagogik tajribasi, milliy tafakkuri, ma'rifiy an'analari va tarbiyaviy qadriyatlarini chuqur anglash bilan ham belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, jadidchilik harakati vakillarining pedagogik qarashlarini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning milliy ta'lim taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlash va mazkur merosdan hozirgi ta'lim tizimida foydalanish imkoniyatlarini asoslash dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon ilm-fanida jadid pedagogikasi musulmon Sharqi, turkiy xalqlar va Markaziy Osiyo xalqlari tarixida yuz bergan yangilanish jarayonlarning muhim ilmiy-pedagogik hodisasi sifatida baholanadi. Ushbu yo'nalish faqat mahalliy maktab islohoti doirasida emas, balki an'anaviy ta'lim tizimini zamon talablari asosida yangilash, savodxonlikni ommalashtirish, milliy ongni shakllantirish, ona tili asosidagi ta'limni rivojlantirish hamda dunyoviy bilimlarni o'quv jarayoniga kiritish bilan bog'liq keng ko'lamli ma'rifiy harakat sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan jadid pedagogikasi Sharq va G'arb ma'rifatparvarlik tajribalarini o'zaro uyg'unlashtirgan, milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilimlarga yo'l ochgan pedagogik tafakkur shakli sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda milliy madaniyatimiz tarixining muhim bosqichlarini haqqoniy, xolis va ilmiy asosda o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, XXI asr boshlaridan jadidchilik harakati, uning ma'rifiy-pedagogik mohiyati, milliy uyg'unlash jarayonidagi o'rni hamda ta'lim-tarbiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasini yoritishga qaratilgan qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimidagi islohotlar "...yoshlarimizning bilimi va imkoniyatlarini Vatanimiz ravnaqi yo'lida birlashtirish bugungi zamon pedagogikasining oldiga qo'yilgan maqsadlardan asosiysi"¹ bo'lib, bu borada jadid ma'rifatparvarlarning yoshlar tarbiyasiga hayot yoki mamot masalasi sifatida qaragani fikrimizni asoslaydi. Bu jihatdan jadid ma'rifatparvarlarining yoshlar tarbiyasiga millat kelajagini belgilovchi hayotiy masala sifatida yondashgani alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli milliy pedagogik meros, ma'naviy qadriyatlar va yosh avlodni zamon talablari asosida tarbiyalashga doir yaqin tarixiy tajribani birlamchi manbalar asosida chuqur o'rganish muhim vazifa hisoblanadi. Jadid pedagogik qarashlarini, ularning ta'limni yangilash, milliy ongni shakllantirish, ona tili va adabiyot orqali ma'rifatni yoyish borasidagi faoliyatini tadqiq etish hozirgi mustaqillik sharoitida ham dolzarbligini yo'qotmagan. Mazkur merosdan bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish milliy ma'naviyatni mustahkamlash, tarbiyashunoslikning nazariy asoslarini boyitish va yoshlarni tarixiy xotira hamda milliy qadriyatlar

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - B. 497.

ruhida kamol toptirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Milliy ta’lim-tarbiya va o‘qitish jarayoni masalalarini chuqur o‘rganish pedagogikada barcha davrlar uchun eng muhim mavzulardan biri bo‘lib kelgan.

Jahon ilm-fanida ham jadid pedagogikasi yuzasidan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, E.Lazzerin, E.Ollvort, N.Davlat, X.Komatsu, I.Baldauf singari bir qancha olimlar ishlarida Turkistondagi jadidchilik faoliyati, jadid pedagogikasi va uning xos xususiyatlari yuzasidan mulohazalar bildirilgan². K.Bendrikov, E.Karrer, A.Kyugelgan, N.Diktorova, S.Tolstov, N.Arxaangelskiy singari Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida jadid pedagogikasi, Turkistondagi ta’lim-tarbiya tizimi, bu tizimdagi yetakchi g‘oya va tamoyillar, ta’lim-tarbiya usullari ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilgan³.

Mamlakatimiz olimlaridan B.Qosimov, U.Dolimov, Sh.Ne‘matov, Y.Abdullayev, O.Abdullayev, Z.Ahmadova, Z.Ahrorova, D.Jamalova, D.Axadova,

² Lazzerini E. J. Ismail Bey Gasprinskii and Muslim Modernism in Russia, 1878-1914: PhD dissertation. - Seattle: University of Washington, 1973; Lazzerini E. J. From Bakhchisarai to Bukhara in 1893: Ismail Bey Gasprinskii's Journey to Central Asia // Central Asian Survey. - 1984. - Vol. 3. - № 4. - P. 77-88; Allworth E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. - Stanford: Hoover Institution Press, 1990. - 411 p; Devlet N. Rusya Türklerinin Millî Mücadele Tarihi, 1905-1917. - Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, 1985. - 302 s; Carrère d'Encausse H. Islam and the Russian Empire: Reform and Revolution in Central Asia / transl. by Q. Hoare; pref. by M. Rodinson. - London: I. B. Tauris, 1988. - 267 p; Komatsu H. Kakumei no Chūō Ajia: aru Jadīdo no shōzō. - Tokyo: Tokyo Daigaku Shuppankai, 1996; Komatsu H. Dār al-Islām under Russian Rule as Understood by Turkestani Muslim Intellectuals // Empire, Islam, and Politics in Central Eurasia / ed. by T. Uyama. - Sapporo: Slavic Research Center, Hokkaido University, 2007. - P. 3-21; Baldauf I. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams. - 2001. - Vol. 41. - № 1. - P. 72-88.

³ Граменицкий С. М. Дискуссия о новометодных мактабах. - Тошкент, 1909. - Б. 25; Бендрик К. Е. Очерки истории народного образования в Туркестане. - Москва: Изд-во АПН РСФСР, 1960. - 569 с; Каррер Э. Яширин жамиятлар даври, 1910-1914 // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1994. - № 1-2. - Б. 60-65; Фон Кюгельген А. Легитимация среднеазиатской династии мангытов в произведениях их историков, XVIII-XIX вв. - Алматы, 2004. - 516 с; Толстов С. П. История, этнография, археология Средней Азии: сборник статей. - Москва: Наука, 1968. - Б. 167; Архангельский Н., Дикторова Н. Етти йиллик мактабда она тилининг таълим ва тарбия программаси. - Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1922. - Б. 12.

B.Ahmedov, N.Alimova singari qator olimlar jadidchilik faoliyati, jadid pedagogikasi yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar⁴. Ashurali Zohiriy hayoti va faoliyati yuzasidan T.Tog'ayev, B.Irzayev, R.Tojiboyev, Z.Qobilova, I.Madaminov, D.Zohidova, A.Turdaliyev, F.Qurbonovalarning tadqiqotlari e'tiborga molik⁵.

Bizning magistrlik dissertatsiyamiz Ashurali Zohiriyning publitsistik faoliyatiga bag'ishlangan edi⁶.

Yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlarda Ashurali Zohiriy ijodi tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix va publitsistika nuqtayi nazaridan tahlil qilingan bo'lib, ularda Zohiriyning pedagogik faoliyatiga keng o'rin berilmagan.

Mazkur dissertatsiyamiz esa milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotida muhim o'rin tutgan millat ziyolisi faoliyatini monografik tadqiq etilishi nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qo'qon universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasining "Zamonaviy pedagogikaning dolzarb (2017-2030-yy.)" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Jadidlarning milliy pedagogika rivojiga qo'shgan hissasini Ashurali Zohiriy faoliyati misolida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, uning hayoti, ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati, ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari va pedagogik merosining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jadidchilik harakatining ijtimoiy-pedagogik mohiyatini ochib berish va milliy pedagogik tafakkur tushunchasining mazmuni, tarkibiy belgilari, rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;

Ashurali Zohiriyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilib, uning darsliklar yaratish, muallimlik, matbuot va navoiyshunoslik faoliyatining pedagogik mazmunini yoritish;

Ashurali Zohiriy g'oyalarini zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini asoslash hamda Zohiriy pedagogik merosini o'rganishga

⁴ Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. - Toshkent: O'qituvchi, 1999. - B. 172; Dolimov U. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari: ped. fan. dokt. diss. - Toshkent, 2008; Ne'matov Sh. E. Turkistonda darsliklar yaratishning tarixiy yo'li va ularning didaktik asoslari: ped. fan. nomz. diss. avtoref. - Toshkent, 2009; Abdullayev Y. Mashhur ma'rifatparvarning ikki darsligi // Boshlang'ich ta'lim. - Toshkent, 1993. - № 1. - B. 20-21; Abdullayev O. Tugallanmagan qo'shiq: Elbek tavalludining yuz yilligiga // O'zbekiston ovozi. - 1999. - 12-iyun; Ahadova D. Abdurauf Fitratning ma'rifiy-pedagogik qarashlari: ped. fan. nomz. diss. - Toshkent, 1998. - B. 163; Ahrorova Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ma'rifiy-amaliy faoliyati: ped. fan. nomz. diss. - Toshkent, 1997. - B. 195; Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. - Toshkent: O'qituvchi, 1994. - 432 b; Alimova N. Munavvar Qorining yangi usuli jadid maktablari // Xalq ta'limi. - Toshkent, 2001. - № 6. - B. 60-63.

⁵ Tog'ayev T. Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosi. Fil.f.n. diss. - Toshkent, 2006. - 156 b; Irzayev B. Ashurali Zohiriy - millatimiz fidoyisi // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.164; Qobilova Z. Yurt va millat qayg'usi // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.194; Tojiboyev R. Ilk navoiyshunoslardan edi // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.175; Madaminov I. Qomusiy olim, jonkuyar pedagog // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.171; Zohidova D. "Muhokamat ul-lug'otayn"ning Ashurali Zohiriy nashri va uning qiyosiy tahlili // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.209; Turdaliyev A. "Adabiyot parchalari" darg'asi xrestomatsiyasi haqida // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.160; Qurbonova F. Tarixning achchiq haqiqatlari // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.235.

⁶ Javharova N. Ashurali Zohiriyning publitsistik faoliyati. Magistrlik diss. - Qo'qon, 2023. - 80 b.

yo'naltirilgan bilishga oid, qadriyatli-motivatsion va faoliyatli komponentlar mazmunini belgilash;

Ashurali Zohiriy pedagogik merosini o'rganish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularning samaradorlik darajasini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida jadidlarning milliy pedagogika rivojiga qo'shgan hissasini o'rganish jarayoni, xususan, Ashurali Zohiriy pedagogik faoliyati va merosini ta'lim jarayonida tadqiq etish tizimi belgilandi.

Tadqiqot predmetini Ashurali Zohiriyning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari va ma'rifiy merosi hamda ushbu merosni zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llashning mazmuni, shakl va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-pedagogik tahlil, qiyosiy-analitik tahlil, biografik metod, manbashunoslik tahlili, pedagogik kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Ashurali Zohiriyning pedagogik merosi ilk bor uning shaxsiy birlamchi manbalari – “Adabiyot parchalari” to'plamidagi “Dehqonlar tajribasi”, “Navoiy”, “Forobiy” va “Bobolar so'zi”, “Yurt” jurnali (1917) materiallari hamda F.Vidalning “Bola tarbiyasi haqida” asari tarjimasi (1920) – zaminida yaxlit pedagogik tizim sifatida qayta tiklandi; uning ona tili va darslikchilik, matbuotchilik, navoiyshunoslik hamda muallim tayyorlash yo'nalishlaridagi faoliyati o'zaro bog'liq butunlikda o'zbek pedagogikasi tarixining mustaqil bo'g'ini sifatida ilmiy-nazariy jihatdan dalillandi;

Zohiriyning etnopedagogik va tarjimonlik merosi ilk bor pedagogik tahlil predmeti sifatida ochib berildi: asarlaridagi xalq harakatli bolalar o'yinlari hamda tizimlashtirilgan maqollar milliy jismoniy, mehnat va axloqiy tarbiya resursi sifatida aniqlandi; tarjimalari va “Yurt” jurnalidagi faoliyati misolida jadid pedagogikasining bosh tamoyili – milliy an'ana bilan jahon pedagogik tafakkurining uyg'unlashuvi – Zohiriy amaliyotida hujjatli dalillar asosida asoslab berildi;

“milliy pedagogik tafakkur” tushunchasi ilk bor amaliy ta'rif sifatida uch komponent (bilishga oid, qadriyatli-motivatsion, faoliyatli), ularning kuzatiladigan indikatorlari va uch darajali baholash mezonlari tizimi ko'rinishida ishlab chiqildi; shu asosda Zohiriy merosini zamonaviy oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning maqsad, nazariy-metodologik asos, mazmuniy bloklar, metodik vositalar va kutilayotgan natijalarni qamrab olgan pedagogik modeli yaratildi;

Zohiriy merosini o'rganish samaradorligini baholashning miqdoriy metodikasi ilk bor ishlab chiqildi: uch komponentli diagnostik vosita, boshlang'ich holatni nazorat qiluvchi o'sish farqi va kovariatsion tahlil usullari majmuasi asosida kvazi-eksperimental tadqiqot (uch oliy ta'lim muassasasi, 380 talaba) o'tkazildi; tahlil natijasida maxsus metodik ta'minotning talabalarda milliy pedagogik tafakkurni rivojlantirishdagi ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'siri asoslandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari

Ashurali Zohiriy pedagogik merosini o'rganishga oid nazariy materiallar tizimlashtirildi va Zohiriy hayoti, ijtimoiy faoliyati va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish bo'yicha o'quv-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

talabalarda milliy pedagogik merosga munosabat, kasbiy mas'uliyat va tarixiy-pedagogik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimi taklif qilindi;

Zohiriy merosini zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llashga doir ma'ruza, seminar, mustaqil ish va tarbiyaviy tadbirlar mazmuni ishlab chiqildi;

tadqiqot xulosalari pedagogika tarixi, milliy tarbiya, jadidchilik tarixi, ma'naviyat asoslari, ona tili va adabiyot ta'limi sohalarida yaratiladigan monografiya, darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida natijalarning ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, tahlilga tortilgan materialning ilmiy metodlar vositasida tadqiq etilganligi hamda asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, pedagogikaning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilganligi va tadqiq qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati jadidchilik harakati, milliy pedagogik tafakkur va Ashurali Zohiriy pedagogik merosini o'zaro bog'liq holda o'rganish orqali pedagogika tarixi fanini yangi nazariy xulosalar bilan boyitishda namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari jadid pedagogikasining ijtimoiy-pedagogik mohiyatini, milliy ta'lim taraqqiyotidagi o'rnini va Ashurali Zohiriy faoliyatining ilmiy-pedagogik ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalarida pedagogika tarixi, umumiy pedagogika, milliy tarbiya, jadidchilik tarixi, ma'naviyat asoslari, ona tili va adabiyot ta'limi fanlarini o'qitishda, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, seminar va mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot materiallari talabalarda milliy pedagogik merosga hurmat, tarixiy xotira, kasbiy mas'uliyat va o'qituvchilik faoliyatiga ongli munosabatni shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ashurali Zohiriy pedagogik merosini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalarning joriylanishi quyidagilarda ko'rinadi:

Ashurali Zohiriyning pedagogik qarashlari jadid ma'rifatchiligi, milliy pedagogik tafakkur va o'zbek pedagogikasi tarixining uzviy tarkibiy qismi sifatida asoslangan, uning darslikchilik, muallimlik, matbuotchilik, navoiyshunoslik va milliy til taraqqiyotiga doir faoliyati o'zbek pedagogikasi rivojiga xizmat qilgan ma'rifiy-pedagogik tizim sifatida talqin qilingan o'rinlardan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish" mavzusidagi loyihada foydalanilgan (2026-yil 23-maydagi 21/04-son ma'lumotnoma). Natijada, platforma yangi va ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilib, foydalanuvchilarga qulaylik yaratilgan;

Dissertatsiya ishi natijalari respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini

shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan quyidagi tadqiqot natijalarida: jadidlar maktab, darslik, matbuot va muallim shaxsini ma'rifiy islohotlarning tayanch vositalari sifatida talqin etib, ta'limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb baholaganligi, yangi usul maktablari faoliyati, ona tilida ta'lim berish, dunyoviy fanlarga e'tibor kuchayishi va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jadidchilik harakatining amaliy pedagogik mazmunini tashkil etganligiga doir mualliflik g'oyalaridan FZ-2016-0909111822 – "Darsliklar va o'quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o'quvchilarda ommaviy madaniyatga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari" nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2026-yil 11-iyundagi 01-09/422-sonli ma'lumotnomasi). Shuningdek, jadidlarning milliy pedagogika rivojiga qo'shgan hissasi hamda Ashurali Zohiriy asarlari jadid pedagogikasining ta'limiy-uslubiy mumtoz namunalari sifatida baholanishi kabi ilmiy xulosalardan IL-662205522-raqamli "Umumta'lim maktablarining 5-6 sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo'llash metodikasi" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida ishlab chiqilgan metodik yechimlardan integratsiyalashgan holda foydalanilgan. Natijada, umumta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari boyitildi, jadid pedagogikasi g'oyalari va milliy pedagogik merosni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari kengaydi hamda o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi, mustaqil fikrlash va milliy qadriyatlarga sodiqlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik ta'minot takomillashtirildi.

Zohiriy pedagogik merosini oliy ta'limda o'rganishning metodik tizimi takomillashtirilgan, ma'ruza, seminar, mustaqil ish, manba tahlili, qiyosiy jadval, taqdimot, refleksiv esse va tarbiyaviy tadbirlar asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari orqali ushbu tizimning talabalarda tarixiy-pedagogik bilim, kasbiy mas'uliyat va milliy pedagogik tafakkurni rivojlantirishdagi samaradorligi asoslanganligi to'g'risidagi ilmiy natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali "Bedorlik", "Adabiy jarayon" nomli eshittirishlari (2019-2022-yillar) ssenariysida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2026-yil 12-martdagi 04-36-359-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlar ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajm 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jadidchilik va milliy pedagogik tafakkur rivojining ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlanib, bobning birinchi faslida **“Jadidchilik harakatining ijtimoiy-pedagogik mohiyati”** xususida so'z yuritiladi.

XIX asrning so'nggi choragida jahon siyosiy ayvonidagi keskin o'zgarishlar va yuzaga kelgan ijtimoiy-ma'naviy sharoit mustamlakachilik tuzumi ostida yashayotgan xalqlar oldiga tobora ahvoli chigallashib borayotgan millatning tarixiy, madaniy qadriyatlarini saqlab qolish, millatning ozodligi uchun kurashish va jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari qatoriga qo'shilish masalasini qo'ydi. Bu masalalar esa millatning tafakkurini o'stirish, yosh avlodga ta'lim tarbiya berish va ta'lim sohasida tub islohatlar o'tkazishni talab etar edi. Tarixning ana shu murakkab vaqtlarida Turkiston hududida vujudga kelgan jadidchilik harakati ma'rifat, milliy ong va milliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan alohida ijtimoiy-pedagogik voqelik sifatida tarixiy jarayon markaziga chiqdi.

Ayniqsa, XX asrning boshlarida jadidchilik harakati faqatgina ijtimoiy-siyosiy harakat emas, balki chuqur pedagogik mazmunga ega bo'lgan ma'rifatparvarlik yo'nalishi sifatida o'zini namoyon qildi. O'lkada mustamlakachilik bosimining haddan ziyod kuchayishi, mahalliy tub joy aholisining ijtimoiy-iqtisodiy qashshoqlashuvi hamda yodlashga asoslangan an'anaviy ta'lim tizimining tobora zamon talablariga javob bera olmaydigan ahvolga kelishi jadidchilikning ma'rifatparvar g'oyalarga alohida urg'u berishiga turtki bo'ldi. Bu jihatdan jadidchilik harakati tub mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-pedagogik mazmun kasb etib, millatni uyg'otish, uning ongni yuksaltirish va zamonaviy bilimlar orqali taraqqiyotga erishish harakat vakillarining asosiy maqsadiga aylandi.

Jadidchilik harakati vakillarining pedagogik qarashlari Sharq va G'arb ma'rifatparvarlik an'analari sinteziga asoslangan bo'lib, ularning qarashlarida inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jadid pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri ham uning amaliy yo'naltirilganligida bo'lib, ular ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qila olish qobiliyati, hayotiy ko'nikmalarni egallashini eng muhim jihat deb bilganlar. Shuningdek, jadidlar ta'limni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratdilar. Ularning fikricha, haqiqiy taraqqiyot milliy o'zlikni anglash va saqlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois ular darsliklar, o'quv qo'llanmalari va teatr asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga intildilar.

Jadidchilik harakatining ijtimoiy-pedagogik mohiyati, birinchi navbatda, jamiyatni kompleks isloh qilishga qaratilganligida bo'y ko'rsatadi. Ular quyidagilarda ko'rinadi: usuli jadid maktablarining ochish, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan, faoliyatida milliy tafakkur va yuksak ma'naviy qadriyatlarga suyanadigan shaxsni tarbiyalash, ayollar ta'limini rivojlantirish orqali jamiyatning ijtimoiy bazasini kengaytirish, gumanistik va demokratik tamoyillarga asoslangan ta'lim.

Yigirmanchi yuz yillik boshlarida, ayniqsa, yangi usul maktablariga ehtiyoj juda katta edi. "...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to'g'ridur..."⁷, - degan fikr jadid maktablarining ahamiyatiga berilgan haqiqiy bahodir.

Jadid pedagogikasining yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari o'tgan asr boshlari uchun chin ma'nodagi yutuq bo'lib, jadidlar ilgari surgan bu yo'nalish zamonaviy pedagogikadagi "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim", "subyekt-subyekt munosabati", "individuallashtirish" va "differensial yondashuv" kabi zamonaviy tushunchalarga yaqin keladi. Bu esa jadid pedagogikasining o'z zamonasi uchun naqadar pishiq-puxta nazariy asoslarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bobning ikkinchi fasli **"Milliy pedagogik tafakkur tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari"** deb nomlanadi. Milliy pedagogik tafakkur har bir jamiyatning uzoq vaqtlik tarixiy taraqqiyoti natijasida shakllangan, muayyan xalqning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini, an'alarini, dunyoqarashi hamda tarbiyaviy tajribalarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy falsafiy hodisa bo'lib, mazkur tushuncha pedagogika fanining nazariy asoslarini milliylik bilan uyg'unlashtirgan tarzda, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda xalqning o'ziga xos ma'naviy merosi, ruhiyati, va tarixiy tajribalariga suyanan holatda rivojlanishini anglatadi. Dunyo pedagogik tafakkurida ham milliy pedagogik tafakkur tushunchasi aynan tadqiq etilmagan bo'lsa-da, mazkur tushunchaga yaqin g'oyalar bir qator olimlar tomonidan ilgari surilgan. Xususan, J.Deveyning pedagogik qarashlarida "Ta'lim jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ijtimoiy tajribani avloddan-avlodga uzatadi"⁸, - degan g'oya ilgari suriladi. Olim ta'lim va xalqning milliy-ijtimoiy tafakkuri o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ta'kidlar ekan, bu ikki tushuncha bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'la olmasligini aytadi. O'z qarashlarini amerika xalqi va ta'lim tizimi o'rtasidagi bog'liqlik misolida tushuntiradi. Olimlardan P.Freyr⁹, J.Rouseu¹⁰ J.Pestalozzi¹¹, J.Brunerning¹² tadqiqotlarida ham muammo o'rganilgan.

Milliy pedagogik tafakkur haqida gapirilganda ko'p hollarda u millat o'tmish merosining yig'indisi sifatida baholanadi. Ammo aytish lozimki, milliy pedagogik

⁷ Xursanov J. Jadidlarning Turkiston o'lkasi ta'lim sohasida amalga oshirgan islohatlari // Problems and scientific solutions. - Melbourne, 2022. - B.6.

⁸ Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1986. - 434 p.

⁹ Freire P. Pedagogy of the Oppressed. - New York: Continuum, 2000. - P.72.

¹⁰ Rousseau J. J. Emile, or Treatise on Education. - London: J. M. Dent & Sons, 1911. - P. 143.

¹¹ Pestalozzi J. H. How Gertrude Teaches Her Children. - Syracuse: C. W. Bardeen, 1894. - P.209.

¹² Bruner J. S. The Process of Education. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. - P.56.

tafakkur nafaqat o'tmish merosining jamlanmasi, qotib qolgan dogma emas, zamon talablariga mos ravishda yangilanib boruvchi dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, rivojlanib borayotgan davr har bir ta'lim tizimi oldiga yangidan yangi talablar qo'yar ekan, millat farzandlari xalq qadriyatlariga mos holatda uni tashkil etadi. Qadriyatlarning o'zi ham dinamik tizim ekanligi hisobga olinganda, milliy pedagogik tafakkurning ham kengayib boruvchi xususiyati oydinlashadi.

O'zbek milliy pedagogik tafakkuri ham o'ziga xos uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, u turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlari ta'sirida shakllana borgan. Ushbu tafakkurning taraqqiyot bosqichlarini shartli ravishda quyidagicha ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – qadimgi va ilk o'rta asrlar davri;

Ikkinchi bosqich – o'rta asrlar uyg'onish davri;

Uchinchi bosqich – jadidchilik davri;

To'rtinchi bosqich – sovet davri pedagogikasi;

Beshinchi bosqich – mustaqillik davri pedagogik tafakkuri.

Umuman olganda, milliy pedagogik tafakkur shunday tizimli jarayonki, u uzluksiz tarzda rivojlanib boradi. Milliy pedagogik tafakkur o'zida tarixiy meros va zamonaviy yondashuvlarni mujassamlashtiradi. O'zbek pedagogik tafakkuri misolida ko'rish mumkinki, har bir tarixiy bosqich ushbu tafakkurning shakllanishi va boyishiga o'ziga xos hissa qo'shgan. Shu bois, bugungi kunda milliy pedagogik tafakkurni chuqur o'rganish va uni ta'lim-tarbiya amaliyotiga samarali joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Milliy pedagogik tafakkur rivojining uchinchi bosqichi sifatida e'tirof etiluvchi jadidchilik davri XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuzaga kelgan tub o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur davr pedagogik tafakkurida yangilanish, islohotchilik va milliy uyg'onish g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etib, ta'lim-tarbiya tizimining mazmuni, shakli va metodlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Jadidchilik harakati nafaqat madaniy-ma'rifiy oqim, balki milliy o'zlikni anglash va jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan kompleks ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ashurali Zohiriyning pedagogik faoliyati va qarashlari”** deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli **“Ashurali Zohiriyning hayoti va ijtimoiy faoliyati”** masalasi tahliliga bag'ishlanadi.

Bugungi kunda jadidchilik merosini o'rganish, uning ilg'or g'oyalarini zamonaviy ta'lim tizimiga tadbiq etish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazaridan, Ashurali Zohirining hayoti va ijtimoiy faoliyatni tadqiq etish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki pedagogika, ijtimoiy fanlar taraqqiyoti uchun ham muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yil 28-sentyabrda Farg'ona viloyatida saylovchilar bilan bo'lgan uchrashuvda Ashurali Zohiriy yodga olib, “Yurtimizda ilk bor “O'zbek tili” darsligini yaratgan atoqli olim, jurnalist va tarjimon, jamoat arbobi Ashurali Zohiriy bo'lganini sizlar, albatta, yaxshi bilasizlar. Butun umrini el-yurtni, millatimizni ma'rifatli va madaniyatli qilishga bag'ishlagan, 1937-yili “xalq dushmani” sifatida qatag'on qurboni bo'lgan bu betakror insonning

xotirasini munosib qadrlash, nomini abadiylashtirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsak, o'ylaymanki, tarixiy adolat qaror topadi"¹³, - degan edilar. Chindan ham, butun faoliyatini millat taraqqiyotiga safarbar qilgan Zohiriyning jamiyatning qator jabhalari taraqqiyotida sezilarli o'rni bor. Uning faoliyati nafaqat ijtimoiy nuqtayi nazardan, balki ilmiy jihatdan ham serqirra edi. Zohiriyning o'zbek pedagogikasi, adabiyotshunosligi, tilshunosligi, publisistikasi taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilar ekan, filologiya fanlari doktori, professor Z.Qobilova "Yurt va millat qayg'usi maqolasida "Ashurali Zohiriy ham o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan yirik namoyandalardan, yangi zamon o'zbek madaniyatining Qo'qondagi asoschilaridan biri bo'lgan. U o'zbek milliy pedagogikasi, adabiyotshunosligi, noshirligi, shuningdek, publisistikasi taraqqiyosida ham katta xizmatlar qilgan millat farzandi edi. Ashurali Zohiriyning yuzlab maqolalari o'z davrining turli gazeta va jurnallarida chop etilgan. Ularning barchasi xalqning ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayoti, mavjud muammolar va ularning yechimi sifatida diqqatga sazovor"¹⁴, - degan asosli mulohazalarni bildiradi.

Ashurali Zohiriy 1885-yil Qo'qon shahri yaqinidagi Oyim qishlog'ida mehnatkash, zahmatkash o'zbek dehqoni xonadonida tug'ilgan. Zohiriy dastlab Qo'qondagi eski uslubdagi maktabda ilk saboqlarini oladi. 1907-yildan o'sha davrda nafaqat Qo'qondagi, balki butun Turkistondagi eng yirik ilm maskanlaridan biri bo'lgan Madalixon madrasasida tahsilini davom ettiradi. Bu haqida filologiya fanlari nomzodi Sh.Isayeva "Madalixon madrasasida ilm olish jarayonida turk, arab, ozarbayjon va fors tillarini o'rganishi uning keyingi bosqichlardagi faoliyati uchun zamin yaratadi"¹⁵, - degan edi. Zohiriy madrasada o'qish bilan bir qatorda 1907-1917-yillar oralig'ida Qo'qondagi 2-sonli rus-tuzem maktabida o'zbek tili va adabiyotidan dars beradi. Bu davrdagi faoliyati unga bolalar dunyoqarashini chuqurroq o'rganishga, ularning qiziqishlari bilan yaqinroq tanishishga imkon beradi. Shu bilan birgalikda, o'qituvchilik faoliyatida u ta'lim- tizimining isloh qilishi zarur bo'lgan jihatlari, hal etilishi lozim bo'lgan muammolari ichiga chuqurroq kirib boradi.

Ashurali Zohiriyning ijtimoiy, ilmiy va pedagogik faoliyatida tatar ma'rifatparvari Zakiy Validiyning o'rni beqiyos. Tarixchi olim B.Irzayevning ta'kidlashicha, "Zakiy Validiy bilan olib borilgan xalq maorifi, ilm-fan, tarix, til va adabiyot masalalaridagi tinimsiz munozaralar Ashurali Zohiriyning olim sifatidagi faoliyatida muhim o'rin tutgan"¹⁶.

1912-1913-yillarda Zohiriy qo'qonlik bir guruh ma'rifatparvarlar bilan birgalikda Qozon shahriga boradi va u yerda tatar musulmonlari foydalanayotgan ta'lim jarayonlaridagi innovatsion usullarni o'rganib qaytadi. Ashurali Zohiriy murabbiylar qo'llayotgan yangi usullarni o'rganish bilan birgalikda, madrasalardagi turklar tarixi o'qituvchisi Ahmad Zokiy Validiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv turkiy xalqlarning ikki buyuk ma'rifatparvari faoliyatining keyingi

¹³ Mirziyoyev Sh. Farg'onadagi saylovchilar bilan uchrashuvdagi nutqidan, 2021-yil 28-sentyabr.

¹⁴ Qobilova Z. Yurt va millat qayg'usi // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.194

¹⁵ <https://youtu.be/YMDC0XM9JLs?si=8Jnk7shh9i2yzzWA> [murojaat sanasi: 22.05.2026].

¹⁶ Tog'ayev T. Ma'rifat va istiqloq kurashchisi // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.83.

bosqichlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ikki qardosh xalq ziyolilarining istiqboldagi hamkorliklariga yo'l ochadi. Ashurali Zohiriy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, u jamiyatning turli jabhalarida sidqidildan xizmat qiladi. Xususan, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, pedagogika, leksikografiya singari sohalarining tadrijiy taraqqiyoti yo'lida qator ishlar amalga oshiradi. Jumladan, olim sifatida Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'otayn" va "Vaqfiya" asarlarini maxsus tadqiq etib, mazkur asarlarni matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

Millat ma'naviyatini rivojlantirish, yangi usul maktablarini tashkil qilish va ularning davomiy faoliyatini ta'minlash ilg'or g'oyalar bilan birgalikda moddiy xarajatlarni ham talab qilar edi. Buni teran anglagan jadidlar ma'rifatparvarlik bilan bir qatorda xalq xo'jaligi va tadbirkorlikning turli sohalarida ham faoliyat olib borganlar. Xususan, Ashurali Zohiriy tabiatan tadbirkor, ishbilarmon kishi bo'lgan. Shuning uchun ham xalq xo'jaligining turli jabhalarida samarali faoliyat olib borgan. Jumladan, 1912-1917-yillar oralig'ida Oyim qishlog'idagi kichik kredit jamiyatida rais, 1918-1919-yillarda Qo'qon kooperatsiyasida rahbar vazifasida xizmat qiladi. "Harakter jihatdan dono va donishmand, o'zgalarga hamisha yordam berish istagida bo'luvchi Zohiriyning atrofi hamisha ishbilarmon yoshlar va badavlat insonlar bilan to'lgan edi"¹⁷. Zohiriy bu yillar davomida aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator ahamiyatga molik ishlarni amalga oshiradi.

Ashurali Zohiriyning publisistikasi ham uning faoliyatidagi alohida yo'nalish sifatida e'tiborga molik. U bu sohada amalga oshirgan ishlari o'zbek jurnalistikasi tarixida alohida voqelik sifatida e'tirof etiladi. 1917-yilda "Yurt" jurnaliga asos soladi.

Ashurali Zohiriyning o'zbek leksikografiyasi taraqqiyotida ham o'rni beqiyos. Xususan, 1925-yilda (ayrim manbalarda 1927-yilda) "Ruscha-o'zbekcha lug'at" yaratadi.

1917-yildan Ashurali Zohiriy faoliyati siyosiy tus ola boshlaydi. Rossiyada yuz bergan fevral inqilobi Imperiya ta'sir ostida bo'lgan hududlar ziyolilarining faol harakatga kelishiga sabab bo'ladi. Bu siyosiy harakatlarda Zohiriy ham ishtirok etadi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari sababli Ashurali Zohiriy 1931-yilda hibsga olinadi va sud qarori bilan mehnat lageriga yuboriladi. Lagerdan qaytgach, oradan ko'p vaqt o'tmasdan 1937-yilning 5-sentyabr kuni O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari Zagvozdinning tegishli qaroriga muvofiq Zohiriy qator ayblovlar bilan qaytadan qamoqqa olinadi va 1937-yil 4-dekabr kuni Ashurali Zohiriy otuv jazosiga hukm qilinadi. Hukm 1937-yil 28-dekabr kuni ijro etildi. Shu tariqa milliy maorif va matbuot rivojiga munosib hissa qo'shgan ma'rifatparvar ziyoli totalitar tuzumning navbatdagi qurboniga aylandi.

Stalin davri qatag'onlari oqibatida nohaq jazolangan ko'plab ziyolilar singari Ashurali Zohiriyning ham nomi oqlandi. 1958-yil 15-sentyabr kuni Ashurali Zohiriy O'zSSR Oliy sudi tomonidan rasman oqlanib, unga qo'yilgan ayblovlarning asossiz va nohaq ekani e'tirof etildi. Bu holat nafaqat bir inson sha'ning tiklanishi, balki

¹⁷ Tog'ayev T. Ma'rifat va istiqloq kurashchisi // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar to'plami. - Farg'ona, 2021. - B.83.

jadid va milliy ziyolilar faoliyatiga nisbatan sovet davrida yuritilgan siyosatning adolatsizligini tasdiqlovchi tarixiy hujjat sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobning ikkinchi faslida **“Ashurali Zohiriyning pedagogik qarashlari”** tahlil qilinadi. Ashurali Zohiriy jadidchilik harakatining faol vakili sifatida ta’lim islohoti, milliy uygʻonish va ma’naviy taraqqiyot gʻoyalarini ilgari surgan; u jadid maktablarini tashkil etish, yangi usuldagi ta’limni joriy qilish, oʻquv dasturlarini yangilash va darsliklar yaratish ishlarida faol ishtirok etgan.

T.Togʻayev Zohiriyning ilmiy-pedagogik faoliyati XX asr boshlariga toʻgʻri kelishini taʼkidlaydi¹⁸. Zohiriy 1907–1917-yillarda Qoʻqondagi 2-rus-tuzem maktabida oʻqituvchilik qilgan, 1917-yilda Turkistondagi birinchi dorulmuallim tashkil etilishida jonbozlik koʻrsatgan, 1921–1926-yillarda esa Fargʻona viloyat ta’lim-tarbiya texnikumida faoliyat yuritgan. Uning “Ma’orif haftasi” maqolasida ibtidoiy, oʻrta va oliy darajadagi milliy maktablar hamda malakali muallimlar tayyorlash zarurati alohida taʼkidlanadi¹⁹.

Zohiriy merosida ona tili va imlo ta’limi markaziy oʻrin tutadi. Uning oʻzbek tilidagi ilk “Imlo” (1916) darsligi orfografiya va punktuatsiya qoidalarini birinchi boʻlib tizimlashtirgani bilan ahamiyatli²⁰; Abdurauf Fitrat “Sarf” asari soʻzboshisida bu yoʻlda “birinchi odimni qoʻqonliq Ashurali Zohiriy otdi” deya baho bergan²¹. Oʻsha davrda darslik tanqisligini L.Olimiy singari ziyolilar ham qayd etgan²², bu esa Zohiriy darsliklarining tarixiy zaruratini koʻrsatadi. Uning S.Oqoyev bilan hammuallifligidagi “Turkiy xrestomatiya yoxud terma kitob” (1912) esa Turkiston boshlangʻich maktablari uchun adabiyot yoʻnalishidagi dastlabki qoʻllanmalardan biridir.

Faslda Zohiriyning shaxsiy birlamchi manbalari pedagogik nuqtayi nazardan alohida tahlil qilingan. Ular orasida Abdulhamid Sulaymon (Choʻlpon) bilan tuzgan “Adabiyot parchalari” (1926) xrestomatiyasi²³ markaziy oʻrin tutadi: bu majmua badiiy adabiyotning tarbiyaviy va didaktik quvvatiga tayangan holda yosh avlodda estetik did, ona tiliga muhabbat va milliy ma’naviyatni shakllantirishga qaratilgan. Toʻplamga Zohiriyning toʻrt asari – “Dehqonlar tajribasi”, “Navoiy”, “Forobiy” va “Bobolar soʻzi” – kiritilgan boʻlib, ular uning pedagogik qarashlarini bevosita namoyon etuvchi manbalardir.

“Dehqonlar tajribasi” asari tahlili Zohiriyning etnopedagog sifatidagi qirrasini ochib beradi²⁴. Unda xalq mavsumiy mehnat taqvimini hamda anʼanaviy bolalar oʻyinlari – “kan”, “oshiq”, “ip toʻp”, “tutdi-tutdi”, “laylak-taxta” – etnografik aniqlik bilan yozib qoldirilgan; bu oʻyinlar milliy jismoniy tarbiyaning, dehqon va ayollar mehnatining tasviri esa tabiiy mehnat tarbiyasining vositasi sifatida baholanadi.

¹⁸ Togʻayev T. Maʼrifat va istiqloq kurashchisi // Ashurali Zohiriy - yurt va millat farzandi: maqolalar toʻplami. - Fargʻona, 2021. - B.83.

¹⁹ Zohiriy A. “Maʼorif haftasi” eʼlon qilinishi munosabati bilan // “Fargʻona” gazetasi, 1923-yil 65-son.

²⁰ Togʻayev T. Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosi. Fil.f.n. diss. - Toshkent, 2006. - 136 b.

²¹ Fitrat A. Oʻzbek tili qoidalari toʻgʻrisida bir tajriba: Sarf. - Toshkent, 1925. - B.12.

²² Олимий Л. Қизил матбуотимизнинг ҳозирги ҳоли// Фарғона газ. -1924. -№181.23 Саъдий А. Олти йиллик ўзбек қизил матбуоти даврида мактаб адабиётлари// -1924. -№181.

²³ Sulaymon A., Zohiriy A. Adabiyot parchalari. – Toshkent: Zabardad Media, 2023.

²⁴ Oʻsha manba (“Dehqonlar tajribasi”).

Asar yakunidagi maktab va tabiat uyg'unligi haqidagi qarash zamonaviy "tabiatga mos ta'lim" tamoyili bilan hamohangdir.

Zohiriy to'plagan "Bobolar so'zi" xalq maqollarini to'rt mavzuviy guruhga – boy-kambag'allik, mardlik, mehnat hamda xotin-qizlar tarbiyasi – ajratib tizimlashtirgani²⁵ uni xalq donishmandligini tarbiyaviy maqsadga muvofiq tartibga soluvchi metodist-pedagog sifatida tavsiflaydi. "Navoiy" va "Forobiy" tarjimayi hollarida esa Zohiriy mumtoz ilmiy-adabiy merosni o'quv jarayoniga olib kirib, yosh avlodda milliy g'urur uyg'otishga intiladi; xususan, "Muhokamat ul-lug'atayn" talqini uning ona tili g'ururi g'oyasini yorqin ifodalaydi.

Zohiriyning milliylik bilan zamonaviylikni uyg'unlashtirish tamoyili uning tarjimonlik faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. U fransuz shifokori F.Vidalning "Bola tarbiyasi haqida" (1920) asarini o'zbek tiliga o'girib²⁶, bola gigienasi va tibbiy tarbiyasiga oid ilmiy bilimlarni – 39 bob va besh jadval ko'rinishida – Turkiston ta'lim tizimiga olib kirgan. Bu jadid pedagogikasining milliy an'ana bilan jahon ilmiy tafakkurini birlashtirish tamoyilini amalda tatbiq etilishidir.

Zohiriyning matbuotchilik faoliyati ham ma'rifiy-pedagogik yo'naltirilgan edi. U nashr etgan "Yurt" jurnalidagi (Qo'qon, 1917) "Vaz va voiz" maqolasida notiq-murabbiy uchun to'qqiz shart-mezon ilgari suriladi²⁷: bilimlilik, so'z va amal muvofiqligi, tinglovchining ruhiy holati hamda saviyasini hisobga olish talab etiladi. Muallif ma'rifiy majlisni ta'lim maskaniga qiyoslab, matbuotni ma'rifiy minbar sifatida talqin qiladi va targ'ibot jarayoniga yuksak metodik talablar qo'yadi.


Umuman, faslda Ashurali Zohiriyning pedagogik qarashlari uning shaxsiy asarlari, darsliklari, tarjimalari va matbuot faoliyati misolida yaxlit tizim sifatida ochib beriladi. Uning ona tilida sifatli ta'lim, mumtoz va xalq merosidan foydalanish, milliylik va zamonaviylik uyg'unligi hamda o'qituvchi shaxsining mas'uliyati haqidagi g'oyalari bugungi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan mazmunan uyg'unlashadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Ashurali Zohiriy pedagogik merosining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati"** masalalariga qaratilgan bo'lib, bobning birinchi fasli **"Zohiriy g'oyalarini zamonaviy ta'limda qo'llash imkoniyatlari"** deb nomlanadi. Bobda Ashurali Zohiriy pedagogik merosini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish modeli ishlab chiqildi.

²⁵ O'sha manba ("Bobolar so'zi").

²⁶ Vidal F. Bola tarbiyasi haqida / tarj. A. Zohiriy. – Farg'ona: Turkiston jumhuriyati hukumat nashriyoti, 1920.

²⁷ Zohiriy A. Vaz va voiz // Yurt. – Qo'qon, 1917. – № 3.



1-rasm. Ashurali Zohiriy pedagogik merosini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish modeli

Modelning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u Ashurali Zohiriy merosini pedagogika tarixi fanining chetgi mavzusi sifatida emas, balki bo'lajak pedagog-o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini boyituvchi muhim manba sifatida talqin qiladi. Modelda tarixiy bilim, metodik tahlil hamda qadriyatli ta'lim-tarbiya bir-biri bilan bog'langan holatda beriladi. Bu esa dissertatsiya natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyatini oshiradi.

